

KOREYS TILIDA “KO‘Z” HAQIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING IFODALANISHI

Abduvohidova Shoista

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Lingvistika (koreys tili) yo‘nalishi
magistranti

Abstract: This article focuses on the most common and widely used nonverbal phraseologies in Korean language.

We know that today in our country great importance is attached to the study of foreign languages. That is why our government is opening wide avenues for learning foreign languages. Mutual political, economic, social and cultural ties between Uzbekistan and the Republic of Korea are currently contributing to the rapid development of the Korean language in Central Asia.

Just as every nation has its own way of speaking, Korean has its own set of idioms. During the conversation phraseological units play a key role. In this article, we also explored the phraseology of the eye.

Аннотация: Эта статья посвящена наиболее распространенным и широко используемым невербальным фразеологиям в корейском языке.

Мы знаем, что сегодня в нашей стране большое значение придается изучению иностранных языков. Вот почему наше правительство открывает широкие возможности для изучения иностранных языков. Взаимные политические, экономические, социальные и культурные связи между Узбекистаном и Республикой Корея в настоящее время способствуют быстрому развитию корейского языка в Центральной Азии.

Так же, как у каждой нации свой способ говорить, в корейском языке есть свой набор идиом. Во время разговора фразеологические единицы играют ключевую роль. В этой статье мы также исследовали фразеологию глаза.

Annotatsiya: Ushbu maqola koreys tilida keng qo‘llaniladigan va qo‘llanilib kelayotgan ko‘zga oid noverbal frazeologizmlarga bag‘ishlanadi.

Bilamizki hozirgi kunda horijiy tillarni o‘rganishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Shu sababli hukumatimiz horijiy tillarni o‘rganishga keng yo‘llarni ochib bermoqda. O‘zbekiston va Koreya Respublikalari o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqalarida koreys tilining tez sur‘atlarda rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Har bir xalq o‘z so‘zlashuv uslubiga ega bo‘lganidek koreys tilida ham insonlar o‘rtasida ishlatiluvchi frazeologizmlar mavjud. So‘zlashuv jarayonida frazeologik birliklar asosiy o‘rinni egallaydi. Biz ham shu maqola orqali ko‘z haqidagi frazeologizmlarning o‘rganib chiqdik.

Key words: phraseology, component, cultural, eye, eye phraseologism.

Frazeologizm (frazeologik birlik) – bu semantik jihatdan bog‘langan so‘z birikmalar va gaplarning umumiy nomlanishi bo‘lib, shaklan o‘xshash bo‘lgan sintaktik strukturalardan farqli ular fikrni tashkil etishda so‘zlar tanlanishi va ularning kombinatsiyasining umumiy qonuniyatlariga muvofiq amalga oshirilmaydi, balki nutqda belgilangan semantik struktura va muayyan leksikgrammatik tarkibning o‘zaro munosabati bilan aks ettiriladi²⁷.

Frazeologizmlar hozirda ko‘pgina tillarda tadqiqot obyektiga aylanib kelmoqda. “Frazeologizm” tushunchasi, uning tarkibi va hajmi, milliy xususiyati, madaniy-informatsion funksiyasi va shu kabi boshqa xususiyatlari hali ham dolzarbligicha qolmoqda¹. Koreys tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish XX - asrning boshlarida boshlanib, tadqiqotlar ko‘lami va natijalari bosqichsma-bosqich rivojlana borgan. Frazeologizmlar ustida olib borilgan tadqiqotlar olti davrga bo‘lingan holda ko‘rib chiqiladi². Har bir davrda koreys tili frazeologiyasining muayyan masalalari ko‘tarilib, ular tilshunoslar tomonidan har tomonlama o‘rganilib chiqilgan. Mavjud

¹ Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1988. С. 559.

² 문금현. 국어의 관용 표현 연구. 서울: 태학사. 1999.7 p.

va hal qilinishi lozim bo‘lgan muammo va masalalar ustida tadqiqotlar olib borishgan.

Birinchi davr (1910 - yildan 1960 - yilgacha) asosan frazeologizmlarni to‘plash bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan. Cho In Ing, No Su Ryon²⁸, Li Hun Jong²⁹, Kim Mun Chang³⁰ kabi olimlar bu davrning namoyondalari sanalishadi. Bu davrdagi tadqiqotlarda sof frazeologik birliklar haqida tushuncha mavjud bo‘lgan bo‘lsa ham, lekin ushbu birliklarning boshqa o‘xshash kategoriyalar (ayniqsa maqollar) bilan farqi aniq tushuntirilib o‘tilmagan. Shuning uchun frazeologiya sohasidagi tushunchalar va frazeologik birliklarning xususiyatlarini belgilash, qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim vazifalar hisoblangan.

Ikkinchi davr (1970 - yillar) da frazeologizmlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan bog‘liq tadqiqotlar asosiy o‘rin tutadi. Bunday tadqiqotlarda Kim Jong Thek³¹, Hvang Hi Yong³², Son Nak Pomlarning xizmatlari kattadir. Bu davrda birinchi davrga nisbatan ancha siljishlar bo‘lib, frazeologizmlarning tizimli tadqiqoti asta-sekin rivojlana boshlangan. Frazeologik birlik tushunchasining normalariga yanada aniqlik kiritilgan.

Uchinchi davr (1980 - yillarning birinchi yarmi) da frazeologik birliklarning nazariy asoslarini yanada mustahkamlash uchun izchil tadqiqotlar olib borilgan. Lim Gyong Sun³³, Li Yong Hi³⁴, Kim In Han³⁵, Li Tek Hi³⁶, Cho Byong The³⁷, Chong Ok Ju³⁸, Pak Jin Sular bu davrning yetuk namoyondalari hisoblanishadi. Bu davrni, aniqrog‘i, frazeologizmlar bilan boshqa kategoriyalarni tasniflash muammosi va tuzilishiga qarab guruhlash masalasi ko‘tarilgan davr deb ta‘kidlash mumkin.

²⁸ 노수련, 언어기구에 대하여: 관용구와 어법에 대한 고찰// 자음 16. 조선어학연구회, 1936. -p.7-13

²⁹ 이훈중. 관용구 와 그배후 민담// 국어문학 24. 국어국문학회, 1961. -P.29-37.

³⁰ 김문창. 국어의의미론적유연성연구// 낙선문 학제 5 호. 낙선어문학회, 1966.

³¹ 김종택. 이디엄연구. 어문학통계25호. 서울: 한국어문학회,1971. - 97-112

³² 황희영. 한국광용어연구//성곡논총9. 선곡학술문화재단, 1978. - P.65-166.

³³ 임경순. 한국어에서본 Chafe 의의미와언어구조//용본논총9. 광주: 전남대인문화학연구소, 1979. - P.61-84.

³⁴ 이영희. 국어의광용적표현과의의미다의화에관한연구//어문논집9. 서울: 중앙대학교, 1982

³⁵ 김인한. 국어의관용어에대한고찰. 전남대석사학위논문. 광주: 전남대학교, 1983. - P.92.

³⁶ 이택희. 관용적표현의언외의미연구. 전북대학교유대학원석사학위논문. 전라북도전주시: 전북대학교,1983, - P.50.

³⁷ 조병태. 영어관용구의해체현상에관한연구//영학논집 7집. 서울: 서울대영문과,1984. - P.103 - 122.

³⁸ 정옥주. 한국어관용어연구, 고려대학교육대학원석사학위논문. 서울: 고려대학교, 1985. - P.96.

To‘rtinchi davr (1980 - yillarning ikkinchi yarmi) da Shim Je Gi³⁹, An Gyong Hva, Chang Gyong Hve⁴⁰ va boshqalar semantik va pragmatik jihatdan frazeologizmlar ustida ko‘p taqiqotlar olib borishgan. Bu davrdagi tadqiqotlar semantik va pragmatik nuqtai nazardan hamda sinxronik qarashlar orqali amalga oshirilganligi bilan ahamiyatga molikdir. Lekin mavjud kategoriyalar hali ham avvalgidek, aniq tarzda belgilanmagan va frazeologik guruhlarning normasi ishlab chiqilmagan holatida bo‘lgan.

Beshinchi davr (1990 - yillarning birinchi yarmi) da frazeologiya to‘g‘risidagi turli nazariyalar va qarashlarni bir tizimga solish borasida ishlar qilingan. Bu borada Kang Vi Gyu, Kim Gvang He, Kim Mun Chang, Chve Kyong Bong, Li Jong Chol, Hong Je Song larning ishlarini alohida ta‘kidlash lozim.

Oltinchi davr (1990 - yillar o‘rtasi) da frazeologiya to‘g‘risidagi nazariyalar va tadqiqotlarni qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq izlanishlar olib borilgan. Kim Ok Pun⁴¹, Mun Jong Son⁴², Yu Sing Guk⁴³, Shin Hyon Suk⁴⁴, Hvang Su Mi⁴⁵, Chang Se Gyong va Chang Gyong Hi⁴⁶, Yang Yong Hi⁴⁷, Li Sang Ok⁴⁸lar bu davrning vakillari hisoblanishadi. Umuman bu davrni, frazeologiya sohasida qilingan ishlarni qaytadan chuqurroq tahlil qilib chiqish davri deb atash mumkin.

Zamonaviy koreys tilshunosligida frazeologizm tushunchasini ifodalashda asosan “관용어” atamasi qo‘llanadi. Bu atama frazeologizmlarga nisbatan qo‘llanadigan boshqa atamalardan ko‘ra frazeologizm tushunchasiga ancha mos kelganligi bois mavjud tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi.

³⁹ 심재기. 한국어관용표현의화용론적연구. 관악어문연구11. 서울: 서울대국문과, 1986. - P. 27 - 54.

⁴⁰ 장경희. 장경희. 국어의간접변형//주시경학보1. 서울: 탑출판사, 1988.

⁴¹ 김옥분. 한국어관용어연구동향에대한고찰. 인하대석사학외논문. 인천:인하대학교, 1994. - P.150.

⁴² 문종선. 국어관용어연구. 원광대석사학위논문. 전라북도익산시:원광대학교,1994. - P.93.

⁴³ 유승국. 동사의다의화유형일고찰. 중앙대석사학위논문. 서울: 중앙대학교.1994.

⁴⁴ 신현숙. 동사 “않다/서다/눅다” 의쓰임과의미확장//제21 회국어학회공동연구회. 1994

⁴⁵ 황수미. 국어관용어의의미론적고찰. 고려대석사학위논문. 서울: 고려대학교, 1994. - P.67.

⁴⁶ 장경희. 국어관용어에관한연구//한국한문집 25집. 서울:한양대한국학연구소. 1994.- P.295 - 318.

⁴⁷ 양영희. 관용표현의의미구현양상//국어학26. 서울:국어학회,1995. - P.171 - 200.

⁴⁸ 이상익. 국어관용표현의분석과어휘부내에서의처리//인문논총 34집. 서울:서울대학교,1995. - pp.1 - 45.

Tilshunos Yun Hi Suga ko‘ra, “관용어” atamasi “o‘ziga xoslik”, “o‘ziga xos ifoda” kabi ma’nolarni ifodalovchi lotincha “idioma” atamasiga to‘la muvofiq keladi. Bugungacha bo‘lgan tadqiqotlarda frazeologizmlarga nisbatan turli atamalar ishlatilib kelingan. Masalan, No Su Ryon (1936) va Li Hun Jong (1961) “관용구”, Kim Jong Tek (1971), Im Gyong Su (1979,1980), Li Yong Hve (1982), Pak Yong Sun (1985) va Pak Jin Su (1985) lar “관용어”, Kim Mun Chang (1974, 1980), Shim Je Gi (1986), Han Chong Gil (1986) va An Gyong Hvalar (1987) “속어”, Hvang Hi Yong (1978) “익힘말”, Kim Gyu Son (1978) “관용 어구”, Kang Kvi Gyu (1990) “관용 표현”, Kim He Suk (1993) “익은말” atamalarini qo‘llaganlar. Frazeologik birlik tushunchasini esa “관용 표현” atamasini ifodalaydi.

Keyingi yillarda frazeologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida frazeologik birliklar til leksik qatlamining katta bir qismi sifatida qayd qilinadi. Chunki mazkur qatlamning tilda miqdor jihatidan ham, ma’nodorlik jihatidan ham juda keng ekanligi e’tiborga molikdir.

Jamiyatdagi munosabatlarni, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq va obrazliroq ifodalash maqsadida frazeologik birliklardan tabiatdagi o‘z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar, jumladan, hayvonlar obrazidan ustalik bilan foydalanilgan.

Ma’lum bir xalq mentalitetini o‘rganishda frazeologizmlarning o‘rni beqiyos albatta. Negaki, frazeologizmlarda shu xalqning o‘ziga xos urf-odat va madaniyati aks ettiriladi. Bilamizki, har bir xalq o‘z so‘zlashuv uslubiga ega.

So‘zlashuv jarayonida insonlar o‘rtasida turli xil jargon so‘zlar, iboralar, maqollar va shu kabilar ishtirok etadi. Bular orasida iboralar, ya’ni frazeologik birliklar asosiy o‘rin egallaydi. Dunyoda hech bir millat yo‘qki, o‘ziga xos va mos iboralarga ega bo‘lmagan. Mana shu millatlar orasida koreys xalqi ham o‘zining frazeologik birliklarning son jihatidan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Koreys xalqi ham qadimdan mavjud bo‘lgan, og‘izdan - og‘izga o‘tib, sayqallashib kelayotgan o‘z ibora (frazeologizm)lariga egadir. Koreys tilidagi frazeologik birliklarni o‘rganish

jarayonida Koreya tarixi va urf – odatlariga oid juda ko‘p qimmatli axborotlarga ega bo‘lish mumkin.

Har bir xalqda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar turli xil mavzularni qamrab oladi. Shu bilan birga koreys tilida inson tana a‘zolari va ko‘zga oid frazeologik birikmalaralohida o‘rin egallaydi. Har bir frazeologik birikmalarning o‘z o‘rni va bir birini takrorlamas ma‘nolarga ham egadir.

눈이 어둡다 – frazeologiyasining ma‘nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsakko‘zlari qorong‘u ya‘ni ochko‘zlik tufayli vaziyatni farqlay olmaslik, vas hu sababli ham hukm chiqarish qobilyatining yoqolishida va ba‘zi hollarda esa bu “ko‘r”lik ma‘nosini ham anglatadi.

예문: 나이가 들어 눈 시력이 나빠지다.

Odarning ko‘rish qobilyati yoshga qarab yomonlashadi.

Keltirilgan frazeologik misollarni ko‘zning ko‘rish qobilyatiga aloqadorligi bor ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni insonning yoshi katta bo‘lgani sari uning ko‘rish qobilyatiga ta‘sir qilishi ya‘ni pasayib borishiga ishora ekanligi keltirilgan.

눈에 불을 켜다 frazeologiyasi tarjimasi “ko‘zi porlash”, “ko‘zi chaqnash” ma‘nosini anglatadi. Frazeologizmdagi ma‘nosida esa juda ham hasis bo‘lish va qiziqib biror narsaga e‘tibor qaratib qattiq ishlash ma‘nosida foydalaniladi.

예문: 승우는 이번 시험에서 꼭 일등을 하려고 눈에 불을 켜고 공부했다.

Seungwoo bu imtihonda albatta birinchi bo‘lish uchun ko‘zlari yonib o‘qidi.

Bu misolda biz Seungwooni imtixonidan o‘tish uchun qiziqib qattiq ishlashi haqida keltirilib o‘tilganini ko‘rishimiz mumkin.

예문: 아버지는 거짓말을 한 동생을 눈에 불을 켜고 야단치셨다.

Ota ko‘zlarida g‘azab chirog‘ini yoqib, yolg‘on gapirgani uchun kichik akaga tanbeh berdi.

눈(을) 감아주다 ko‘zni yumish ma‘nosini anglatib keladiga frazeologizm boshqalarning kamchiliklariga yoki hatolariga ko‘z yumish yoki ko‘rmaganlikga olishda qo‘llaniladigan grammatika hisoblanadi.

예문: 선생님께서 영희가 수업시간에 문자 메시지를 보내는 것을 보셨지만 눈 감아주셨다

O‘qituvchi sinfdagi Yonhening sms yozayotganini ko‘rdi, lekin u ko‘rmaganlikga oldi. Ko‘zini yumdi.

눈이 빠지도록 기다리다 bu frazeologizm ko‘zi intiqib kutish degan ma‘noni anglatadi.

Shuningdek koreys tilida “hayratlanish” ni anglatuvchi frazeologizmlar ham mavjud:

그녀는 너무 아름다워서 홀에 들어 왔을 때 모든 사람의 눈을 반짝거렸습니다.

U shu qadar go‘zal ediki, u zalga kirganida hammaning ko‘zlari chaq nab ketdi.

눈을 반짝거리다

눈 휘둥그래지다 “Ko‘zlar peshonaga chiqdi” degan ma‘nosini anglatib, ajablanarli, hayratlanarli holatlarda qo‘llaniladi.

연진 수미는 바뀌는것을 보고 눈 휘둥 그래졌습니다.

Sumi qanday o‘zgarganini ko‘rgan Yongjinning ko‘zlari hayratdan peshonasiga chiqib ketdi.

Frazeologizmlar fikrni keng qamrovda, obrazli, o‘tkir ma‘noli ifodalash xususiyati bilan boshqa til birliklaridan farqlanadi. Shu bilan birga, ularda qo‘shimcha ma‘no va ma‘no qirralarining kuchli ifodalanishi frazeologizmlarning xarakterli tomonlari hisoblanadi.

Noverbal farzeologizm da so‘zlardan foydalanmasdan shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir (intonatsiya orqali ma‘lumot uzatish yoki bir-biriga ta‘sir qilish, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomima, muloqotning sahnasini o‘zgartirish), ya‘ni nutqsiz va to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etilgan til vositalarisiz yoki har qanday ramziy shakllar bilan ifodalanishidir. Bunday aloqa vositasi keng doiradagi inson tanasiga bir qismiga aylanadi va axborotni uzatish yoki almashish vositalari va usullari inson ifodasining barcha shakllarini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek 눈이 등잔만 해지다 juda hayratda qolish

Mensimaslik ma'nosida esa 눈도 거들떠보지 않다.

눈 없다 Hafa bo'lish holatida qo'llaniladi;

눈 위에 흑 Nafrat uyg'otadigan kishiga nisbatan ifodalovchi ;

눈 (이) 돌아가다 Qo'rquvga tushib g'azablanadigan holat

눈네 모를 세우다 gazab to'la ko'z bn qarash qilish

눈에 불을 쬐다 ko'zda olov yozish

눈에 쌍심지를 쬐다 jahl chiqishi

눈에 천풀이 나다 harorat oshishi (jahl chiqishi sabab)

눈에(서) 불이 나다 tasodifiy holat sabab jahli chiqmoq

눈을 곤두세우다 jahli chiqib koziga g'azab tolmoq

눈이 등잔만 하다 ko'zi chiroqdek bo'lmoq

눈을 부릅 뜨다 jahl qilmoq

눈이 산밖에 비어지다 haddan ziyod bezovtalanib g'azablanish darajasida o'zini yoqotadigan darajaga yetmoq

눈총(을)맞다 birovning g'azabiga uchramoq

눈총(을) 받다 , 눈총(을) 주다 birovning gazabiga uchramoq

Koreys tilida umidsizlik, ilojsizlik, imkoniyatsizlik kabi holatlar asosan 눈 so'z birikmalari orqali shakillantirilib kochma ma'noda qo'llaniladi.

눈앞이 캄캄하다 ko'z oldi juda qorong'u

눈앞이 아찔하다 ko'z oldi aylanishi

눈을 뜨고 볼수 없다 ko'zini ochib qaray olmaslik

눈에서 피눈물이 나다 qonli ko'z yosh to'kmoq

눈물이 앞을 가리다, 눈물이 어리다 kabi frazeologizmlar bo'yoqdorlik bilan xo'rsinib yiglash ma'nosini anglatib keladi.

Ko'rish darsjasini ifodalaydigan frazeologizmlar odatda ko'zning ko'rish holati hamda muayyan obyektning ko'zga ko'rinish darajalarini ko'rsatib keladi. Masalan 눈이 빼다 aniq narsani ko'ra olmaslik

눈을 씻고 보려야 볼수 없다 ko‘rish juda qiyin

눈에 띄다 aniq ko‘rmoq

눈이 필칠하다 yaxshi ko‘ra olmaslik

눈에서 버개가 번쩍나다 va 딱정벌레가 왔다갔다하 ko‘z oldi birdan qorong‘ulashmoq

눈표[가] 나다 ko‘zga yaxshi korinmoq

Shuningdek biror bir ob‘yektga qarash va uni korish ma‘nolarini ifodalab keladigan frazeologizmlarga esa quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

눈에 거슬리다 ko‘zga tashlanmoq

눈에 모를 세우다 g‘azabli ko‘z bilan qaramoq

눈에 설다 birinchi martta ko‘rib turmoq

눈을 맞추다 bir birining yuziga tik qaramoq

눈이 가다 ko‘zni yonaltirmoq

눈이 뚫어지게 bir joyga tikilib o‘tirmoq

Bundan tashqari 눈이 가맏게 fraeologizmi toqatsizlik va sabrsizlik ma‘nolarini ham anglatib keladi.

Koreys tilida inson tana a‘zolari bilan bo‘liq frazeologizmlarning shakillanishida son leksemalar ham faol qatnashadi. Son leksemalar frazeologizmning ma‘no va uslubiy vazifalarini yanada kuchaytirishda xizmat qiladi. Frazeologizmning tarkibida 하나 (bir) 두 (ikki) 세 (uch) 열 (o‘n) 천 (ming) sonlari uchraydi. Frazeologizmlarning orasida ko‘proq uchraydigani 하나 (Xana) (bir) bo‘lib bunga 눈 썸 하나 까딱 안하다, 눈 하나 까딱 하지 않다, 눈 하나 깜짝 하지 않다 lar misol bo‘la oladi. Odatda muayyan sonlar qisqartirilib qo‘llanilib 하나 ning qisqartirilgan holati 한 tarzida kelishini uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, koreys tili frazeologiyasi shu qadar boy va xilma-xilki, u koreys tilini o‘rganuvchilarda, shuningdek, tarjimonlarda ayrim qiyinchiliklar tug‘diradi.

Frazeologiyaning tarkibida obrazlilik va stilistik bo‘yoqdorligi bilan ajralib turuvchi birliklar ancha ko‘p. Hozirgi kunda frazeologik birliklar har hil tillarda turli xil nuqtai nazardan o‘rganilib kelinmoqda. Yuqorida frazeologik birliklardagi faqat ko‘z konseptining ayrim tomonlari tahlil qilindi xolos. Koreys millatiga xos bo‘lgan frazeologizmlarning o‘rni beqiyos. Negaki, frazeologizmlarda shu xalqning o‘ziga xos urf-odat va madaniyati aks etgan bo‘ladi. Koreys millati barcha xalqlar kabi o‘ziga xos madaniyatga, dinga, mentalitetga ega xalqlardan biridir. Har bir xalq xarakterini ochib beruvchi frazeologizmlar va ularning bir qismini tashkil etuvchi zoonimlar ishtrokidagi frazeologizmlar muayyan millatni o‘rganishga katta yordam beradi.

Frazeologizmlar qanchalik ko‘p o‘rganilsa, tahlil va tasnif qilinsa, undagi yangi qirralarning ochilishiga shunchalik imkon tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar. Yazykoznanie. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 1998. С. 559
2. Система фразеологических соответствий в современном корейском языке Е.А.Колодина Вестн. Междунар. ин-та экономики и лингвистики. Сер. "Восточные языки" : сб. ст. – Иркутск, 2014. – № 6. – С. 76-81.
3. 최경봉. 국어 관용어 연구. 고려대 석사 학위 논문. 서울: 고려대학교, 1993. - 100 p.
4. 표준국어대사전. 국립국어연구원. - 서울: 독산동아, 1999.
5. 문금현. 국어의 관용 표현 연구. 서울: 태학사. 1999. 7 p.
6. 이훈중. 관용구 와 그배후 민담// 국어문학 24. 국어국문학회, 1961. -P.29-37.
7. 김문창. 국어의 의미론적 유연성 연구// 낙선문 학제 5 호. 낙선어문학회, 1966.
8. 김종택. 이디엄연구. 어문학통권제25호. 서울: 한국어문학회, 1971. – 97-112
9. 황희영. 한국관용어연구//성곡논총9. 선곡학술문화재단, 1978. – P.65-166.
10. 임경순. 한국어에서 본 Chafe 의 의미와언어구조//용본논총9. 광주: 전남대인문학연구소, 1979. – P.61-84.

11. 이영희. 국어의 광용적 표현과 의미의 다의화에 관한 연구//어문논집9. 서울: 중앙대학교, 1982

12. 김인한. 국어의 관용어에 대한 고찰. 전남대 석사학위논문. 광주: 전남대학교, 1983. - P.92.

13. 이택희. 관용적 표현의 언외의미 연구. 전북대학교 유대학원 석사학위논문. 전라북도 전주시: 전북대학교, 1983, - P.50.

14. 조병태. 영어관용구의 해체현상에 관한 연구//영학논집 7집. 서울: 서울대 영문과, 1984. - P.103 - 122.

정옥주. 한국어 관용어 연구, 고려대학교 교육대학원 석사학위논문 서울 고려대학교, 1985. - P.96.



ATTITUDE OF PRESCHOOL CHILDREN TO ADULT LABOR

Asadova Rukhsara Ergash qizi

Educator of the 4th MTT of Termez district